



“YULDUZNING YO‘LI” QISSASIDA YULDUZ JILVASI VA TAQDIR FOJIASI

Salimova Gulnoza Alibek qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

E.mail: iamsalimova@gmail.com

Tel.: 998908266066

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19566449>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2026

Accepted: 5th April 2026

Published: 12th April 2026

KEYWORDS

ekspozitsiya, kompozitsiya, voqealar rivoji, piching, parallelizm, lirik-psixologik tasvir, realistik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshev qalamiga mansub “Yulduzning yo‘li” qissaning g‘oyaviy-badiiy jihatlari ochib berilgan. Qissada bo‘lib o‘tgan voqealar, qahramonlarning ruhiy holati tahlilga tortilgan. Qissa qahramonlarining bunday ayanchli taqdirleri haqida fikr-muloxazalar bildirilgan.

Zamonaviy o‘zbek nasrining yetuk vakillaridan biri Abduqayum Yo‘ldosh o‘z asarlarida inson ruhiyatining eng qorong‘u va yorug‘ nuqtalarini kashf etishga intiladi. Adibning bugungi kunga qadar chop etilgan ko‘plab qissa va hikoyalari kitobxonlar olqishiga sazovor bo‘lmoqda. Adib qissalari kuchli g‘oyalarni ilgari suradi. Ushbu qissalardan biri bo‘lmish “Yulduzning yo‘li” qissasi shon-shuhrat ortidan quvgan yosh yigitning qismati, shu bilan bir qatorda ma‘naviy mas‘uliyat va ishonch fojiasi haqidagi asardir. Qissa o‘zining ilk satrlaridanoq kitobxonni “Yulduz bo‘lish nima?” va “Unga boradigan yo‘lda nimalarni qurbon qilish mumkin?” degan og‘riqli savollar qarshisiga qo‘yadi.

Qissaning qurilishi lirik-psixologik tasvir hamda realistik epizodlar silsilasidan iborat. Asar ekspozitsiyasiga e‘tibor bersak, muallif voqealar rivojini Sadridin ismli talaba yigitning balandparvoz iddaolari bilan boshlaydi. Ushbu iddaolarni o‘qigan kitobxon bu qahramonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi bunchalar baland ekanligi sababiga qiziqadi va asarni kuchli hayajon bilan o‘qiy boshlaydi. Muallif asar kompozitsiyasida parallelizm usulidan foydalangan. Qissa mazmunining bir tomonida Sadridinning yulduzlik sari “shaxdam” qadamlari, ikkinchi tomonida esa bu yo‘lda poymol bo‘layotgan insoniy taqdirler yotadi. Sadridin Mehriddinov o‘ziga shunchalik ishonardiki bu yo‘lda yoshgina bir qizning taqdirini ham o‘ziniki kabi qora zulmatga burkadi.

Adabiyotshunos olim Rahmon Qo‘chqor ta‘kidlaganidek: “Abduqayum Yo‘ldosh qahramonlari ko‘pincha hayotning murakkab chigalliklari ichida qolgan, o‘zining ijtimoiy va ma‘naviy qiyofasini izlayotgan insonlardir”[2:46]. Ushbu qissada ham qurilish jihatidan tugun aynan qahramonning o‘z xudbinligini “san‘atga fidoyilik” niqobi ostida oqlashga urinishidan boshlanadi.

Qissaning markaziy fojiasi Sadridinning Nafisa ismli sodda qiz bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bu shunchaki sevgi hikoyasi emas, balki ishonch va xiyonat to‘qnashuvidir. Sadridin o‘zining kelajakdagi yutuqlari haqida gapirib, qizni o‘ziga butkul bo‘ysundiradi. Nafisa uchun bu yigit — yorug‘ kelajak timsoli edi. Biroq, Sadridin qizning hayotini barbod qilar ekan, buni oddiy bir holdek qabul qiladi. “Uyat, nomus, iztirob va pushaymonlik...”[3:15]

ichida yonayotgan qizga qarab: "Bo'ladigan ishning ertaroq bo'lgani yaxshi..."[3:16] degan Sadridin bu holatni qanchalar yengil qabul qilganini tushunish qiyin emas.

Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov zamonaviy nasrdagi bu kabi obrazlar haqida gapirganda, yozuvchining badiiy niyati qahramonni shunchaki ayblash emas, balki jamiyatdagi ma'naviy qashshoqlikning ildizlarini ko'rsatish ekanligiga e'tibor qaratadi [1:124]. Qissada Nafisaning ruhiy iztiroblari, konyak ichib o'z dardini unutishga urinishi va oxir-oqibat hayotining so'nib borishi muallif tomonidan achchiq realizm bilan tasvirlangan. Sadridin uchun "yulduzlik yo'li" boshqalarning ustidan bosib o'tish yo'liga aylanadi. Sadridin televizorda o'z qo'shig'ini aylantirish uchun pul topish kerakligini angelaydi va Nafisadan yordam so'raydi. Bundan ishlarni ilgari hech qachon qilmagan qiz albatta unga rad javobini beradi. Ammo Sadridin Nafisani yana ishontiradi. Endi Nafisa Sadridinga ishonishi tabiiy hol edi. Chunki uning kelajagi endi Sadridinga bog'liq. Qahramonimiz o'z maqsadiga erishish uchun bir raqqosani taklif qiladi. Qirq besh yoshlar chamalik bu ayolning Nafisaga bergan maslahatlaridan aniq bo'ladiki, u ham raqqosalik qilaman deb bor yaqinlaridan ayrilgan, pul, mashina bo'lishiga qaramay aslida kerakli "Hech nimani ushlab qololmagan"[3:22] bir ayol edi va Nafisani bu jirkanch hayotdan qutqarib qolishni xohlaydi. Nafisaga yaxshilik qilishi asardagi voqealar davomida ochilib boradi. Unga o'zining oddiy atlas ko'ylagini berganidan tortib bergan maslahatigacha Nafisa uchun edi. Ammo uni qutqarib qola olmadi. Nafisa yana qayta qayta Sadridinga ishondi va... Yigit so'zim deya vada bergan yigit yana Nafisani bu ishlarga aralashtirdi. Bundan Sadridinning o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmasligini bilishimiz mumkin. Nafisa bo'lsa bir yosh va sodda qiz o'zining ishonuvchanligi tufayli asta sekin to'ylarda davomli raqs tusha boshladi va hatto "Qonlarni yurdirib olish uchun" deya, "Uyalmaslik uchun"[3:28] deya konyakka ham o'rganib oldi. Bu ayol kishining eng katta fojeasidir.

Abduqayum Yo'ldosh uslubiga xos bo'lgan piching asar davomida sezilib turadi. Masalan, Sadridinning televizorga chiqish uchun tinmay pul to'lashi-yu, lekin baribir haqiqiy san'atkor bo'la olmasligi — bu iste'dodsizlikning moddiy dunyoga mag'lubiyati ramzidir. Televizorga qancha to'lov qilmasin Sadridin yulduzga aylana olmadi. Haqiqiy talandni xalq tanishi uchun faqatgina moddiy kerak emas. Qissa nomidagi "Yulduz" — aslida erishib bo'lmas haqiqat emas, balki qahramonning shishirilgan "Men"idir. Agar Sadridin ham yulduz bo'lish uchun turli qing'ir yo'llarni qidirmasdan, o'z iste'dodini o'stirishga harakat qilganida edi, balki qissa yakuni boshqacha tugarmidi.

Asar yakunida o'quvchi yulduz bo'lish uchun ham, inson bo'lib qolish uchun ham qandaydir ma'naviy asos kerakligini angelaydi. Nafisaning fojiasi Sadridinning yelkasidagi abadiy tavqi la'nat bo'lib qoladi. Nafisaning keyingi taqdiri nima bo'lishi har qanday o'quvchini o'ylaganda qiyin bo'ladi. Axir uning kelajagi endi qorong'u. Bu jamiyatga qo'shilib keta olishi esa juda qiyin jarayon.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Yulduzning yo'li" — bu faqatgina shaxsiy fojia emas, balki ma'naviy qadriyatlar almashayotgan davrda insoniylikni saqlab qolish haqidagi jiddiy ogohlantirishdir. Abduqayum Yo'ldosh ushbu qissasi bilan o'zbek qissachiligida psixologik tahlilning yangi qirralarini ochib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'raqulov U. Hududsiz jilo (Adabiy-tanqidiy maqolalar). – Toshkent: "Fan", 2006.
2. Qo'chqor R. Qahramonning tug'ilishi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – B. 45-48.
3. Yo'ldoshev A. Yulduzning yo'li. - Toshkent: "Yoshlik", 2008.- B. 1-28.